

## MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH

**Bobobekov Soxib Bobobek o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Bank - Moliya Akademiyasi*

*Magistr*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mahalliy budjetlarni qo'shimcha manbalardan foydalanish tizimini takomillashtirish masalalarini umumnazariy asoslari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mahalliy budjetlar, budet daromadlari, soliqlar, hokimiyat organlari, soliqsiz daromadlar*

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va liberallashtirish, samarali soliq-byudjet siyosatidan foydalangan holda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat boshqaruvini markazsizlashtirish jarayonini davom ettirish joylarda davlat siyosatini amalga oshirishda mahalliy va hududiy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirishga, respublika davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga bosqichma-bosqich o'tkazishga, shuningdek, hududiy davlat hokimiyati organlarining tuman, shahar hokimiyati organlariga vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Moliya sohasida soha va hududlarni mutanosib rivojlantirish hisobidan mahalliy budjetning daromad bazasini kengaytirish zarur. Eng muhimi, tuman va shaharlarda mahalliy byudjetlarning kengaytirilishi aholining turmush darajasi va turmush sharoitini, umuman, barqarorlik va osoyishtalikni yuksaltirishga xizmat qilishi kerak".

Hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan hududlarning moliyaviy bazasini mustahkamlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini kengaytirish bo'yicha hududlarning zaxira va imkoniyatlarini ishga tushirish, bu boradagi ishlar ustuvor vazifalardan biri, shuningdek subventsiyali rayonlar va shaharlarda sanoat va xizmatlarning jadal rivojlanishi hisobiga bunday hududlarni qisqartirish hisoblanadi.

Mahalliy budjet daromadlari mahalliy va umumdavlat soliqlari hisobiga shakllanadi. Umumdavlat soliqlarining mahalliy budjetlarga ajratiladigan qismi har yili qabul qilinadigan qonun va me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Mahalliy soliqlar va soliqsiz daromadlar mahalliy budjet xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas, mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismini boshqariladigan daromadlar hisobiga ta'minlanadi. Bu soliqlar bo'yicha ajratiladigan me'yorlar soliqlar va hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'ladi va har yili hukumat qarori asosida qayta ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda bu me'yorlarning yildan-yilga oshib borishini

kuzatishimiz mumkin. Buni mahalliy budjet xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori budjetlardan quyi byudjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlashimiz mumkin. Chunki, soliq bazasining yuqoriligi me'yorlarni past belgilashga sabab bo'ladi. Mahalliy budjetlarning daromadlarini mustahkamlash borasida mahalliy hukumatning soliq undirish va soliq bazalarini kengaytirishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirishni oshirish, ya'ni ortiqcha undirilgan soliqlarning mahalliy budjetlarga tushadigan qismini oshirishni yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini mustahkamlash hozirgi budjet islohatlarining asosiy yo'nalishi hisoblanmoqda. Bu borada mulkni, erni va tabiiy resurslarni soliqqa tortish asosiy rol o'ynaydi. Keyingi samarali manba bo'lib, jismoniy shaxslar daromad soliqlarini uzoq muddatga mahalliy budjetlarga biriktirib qo'yish hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini markazlashtirishni cheklash hamda bu boradagi vazifalarning bir qismini respublikadan viloyat, tuman darajasiga o'tkazishga asosiy e'tibor qaratilmoqda, buning natijasida ko'pgina vakolatlar mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga navbatma-navbat o'tkazilib borilmoqda. O'tgan davrda bu sohada ko'p ishlar amalga oshirildi, biroq sohada kelgusida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab masalalar mavjud. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim"<sup>29</sup> degan fikrlari so'zimizni tasdiqlaydi.

Mustaqillik davrida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutining respublikamizga xos bo'lgan noyob shakli bo'lgan mahallalarga bir qancha moliyaviy vakolatlarning berilishi, jumladan bolali oilalarga nafaqalar, onalarga nafaqalar yoki moddiy yordamlarning mahallalar tomonidan tayinlanishi ijtimoiy nafaqalar manzilliligini ta'minlash imkonini bermoqda. Mahalliy budjetlar xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy sohaga ajratilayotganligi mazkur soha rivojida muhim o'rin egallamoqda, lekin shu bilan birga davlatimiz rahbari tomonidan "hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetlarning mablag'lari yetarli emasligi"<sup>30</sup> qattiq tanqid qilindi.

Mahalliy budjetlar tarkibida byudjet dotatsiyasi va subventsiyalari ulushini kamaytirishda mamlakatimiz hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha ekanligini ularning moliyaviy ta'minlanish ko'rsatkichlarida ko'rishimiz mumkin. Shunga muvofiq ravishda hududlar miqyosida daromadlarning soliq bazasi va xarajatlarning umumiy miqdori ham farq qiladi. Ayni chog'da, mamlakatning o'z

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda "2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida"gi Parlamentga Murojaatnomasidan

<sup>30</sup> Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. "O'zbekiston", 2017 y. 576. 31-bet.

byudjetini shakllantirish huquqiga ega har bir ma'muriy hududi, daromadlar bazasi hajmidan qat'iy nazar, o'sha hududda yashovchi aholini davlat tomonidan kafolatlangan muayyan ijtimoiy-madaniy xizmatlar bilan ta'minlashi shart.

Demak, mahalliy budjet daromadlari hamda xarajatlarini muvofiqlashtirish respublika va uning hududlari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjet davlat yudjeti iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi sirasiga kiradi. Iqtisodiy ma'noda u hududiy boshqaruv organlari o'z vazifa va funksiyalarini ado etishlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidir. Huquqiy nuqtai nazardan esa, mahalliy byudjet mahalliy boshqaruv organlarining vazifa va funksiyalarini moliyaviy ta'minlashga mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etish va sarflashning qonunan belgilangan shaklidir. Budjet huquqiy akt maqomiga ega bo'lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, Respublika va mahalliy byudjet mamlakat milliy xo'jaligini moliyaviy jihatdan tartibga solish, budjet daromadlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishda dolzarb vazifani bajaradi.

Barcha darajadagi budjetlardagi yirik soliq tushumlarining ulushi yuqori budjetdan belgilanadi. Bunda mahalliy budjetga keyingi yillardagi tushumlarni belgilash imkoni bo'lmaydi. Chunki bu ko'rsatkich vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Masalan, tumanda ishlab chiqarish korxonalari va ishlab chiqarish hajmi ko'payib, ular to'lagan soliqlar salmog'i ham ortsa, kelasi yilda ajratma soliq bazasi kengaygani hisobiga kamaytiriladi. Bunday vaziyatda tuman iqtisodiy o'sishga erisholmaydi. Aminmizki, biz bergan taklif va tavsiyalar O'zbekistonda Barcha darajadagi budjetlarning faoliyatini yaxshilash va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Кобулов Х. А. Худуд даромад салоҳиятини шакллантиришда “бюджет орқали тартибга солиш усуллари” ва “маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари” //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784, Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423, May 2021, p. 384-400

2. Сатторов Б. К., Алляров С. Р. Развитие экономики Узбекистана в условиях мировых интеграционных процессов //Наука, техника и образование. – 2017. – Т. 1. – №. 5 (35). – С. 98-100

3.Алляров С. Теоретическое исследование оптимальной фискальной и денежно-кредитной политики для стимулирования экономического роста // Научный журнал финансов и бухгалтерского учета. – 2018. – Т. 9. – № 8. – С. 206-212.

4. Алляров С., Набиев Е., Алляров С. Амануллаева Ю. (2020) Пути улучшения налогового механизма для обеспечения финансовой безопасности страны

//International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – T. 29. – No 7. –  
C. 7849-7855